

OGAHIIY IJODI VA UNING G'AZALLARIDAGI BADIYY SAN'ATLAR

Ismatova Nodira Asqar qizi

*SamDCHTI Sharq tillari fakulteti O'zbek tili va
adabiyot yo'nalishi 2- kurs talabasi*

Annotatsiya: Ushbu tezisda Xorazm adabiy muhitiga o'zining boy hissasini qo'shgan adiblardan biri Ogahiy hayoti va uning faoliyati haqida ma'lumot beriladi. Shoirning g'azallarida qo'llangan badiiy san'atlar, mavzular va g'oyaviy xususiyatlari ko'rib chiqiladi. Ogahiy ijodi o'z davrining eng qimmatli manbasi ekanligi va g'azallarining ham boy qiymatga ega ekanligi haqida xulosa qilinadi.

Kalit so'zlar: ijodiy faoliyat, g'azal, devon, nido.

XIX asrda Xiva xonligi tarixida o'chmas iz qoldirgan buyuk insonlardan biri Muhammad Rizo Erniyozbek o'g'li Ogahiy edi. 1809-yilda Xiva shahri yaqinidagi Qiyot qishlog'ida mirob oilasida tavallud topgan adib: "Biz Xivada yashovchi yuz toifasidan bo'lgan Amir Eshimbiyning avlodidandirmiz",– deb yozgandi.⁸⁰

Ogahiy 3 yoshligida otasi vafot etib, u tog'asi-xorazmlik mashhur shoir Munisning tarbiyasida qoladi. U dastlab xat-savodni Munisdan o'rganadi va Xivadagi madrasalardan birida tahsil oladi. Ogahiy madrasalarda o'qib yurgan vaqtlarida fors, arab tillarini mukammal o'rganadi va u ijodiy faoliyati davomida forscha, arabcha yozilgan asarlarni o'zbek tiliga tarjima qilib, o'z millatini sharq adabiyoti bilan boyitadi. Ogahiyning eng katta merosidan biri "Ta'viz ul-oshiqin" devoni hisoblanadi. Devonning bunday nomlanishiga sabab shuki, unda 19 ta janrdagi she'rlar mavjud va uning tarjimasi ham shunga mos holatda "Oshiqlar tumori" nomini bildiradi. Ogahiy ijodiy merosining ko'p qismini uning g'azallari tashkil qiladi. G'azallari an'anaviy g'azalchilikdan farqli o'laroq, 7, 9, 11, ba'zan 15, 17, 23 baytdan iborat.⁸¹

Uning g'azallari o'zining chuqur mazmuni, nafis uslubi va yuksak badiiyligi bilan ajralib turadi. Ogahiy ijodida ishq-muhabbat, go'zallik, hayot falsafalari va insoniy kechinmalar asosiy mavzu qilib olingan. Shoir g'azallarida she'riy san'atlar keng qo'llanilib, ular orqali shoirning ichki his-tuyg'ulari o'z aksini topgan. Shu sababli, Ogahiy g'azallarini o'rganishda badiiy tasvir vositalarining o'rni alohida ahamiyatga egadir.

Ogahiy g'azallarida turli xil she'riy san'atlar qo'llanilgan bo'lib, ular asarning mazmunini yanada chuqur anglashga yordam beradi. Uning "Olam gado, man ham gado" radifli g'azali orqali ko'rib chiqamiz. Bu g'azal 9 baytli

⁸⁰ <http://xorazmiy.uz/oz/pages/view/519>

⁸¹ Nusratullo Jumaxo'ja, Iqboloy Adizova. O'zbek adabiyot tarixi (XVI-XIX asr I yarmi) – Toshkent:

Innovatsiya-Ziyo, 2020



g'azal hisoblanadi. Ogahiyning bu g'azalidagi qofiya va radiflar o'zining badiiy xususiyatiga ega. Xususan, 1-baytida shunday keltiriladi:

Ey shax, ko'z-u qoshingga olam gado, man ham gado,
La'li labi durposhinga olam gado, man ham gado.

Ushbu baytda qoshinga va durposhinga so'zlari orqali qofiya yuzaga kelgan. Olam gado, man ham gado birikmasi orqali esa radif yuzaga kelgan. Ogahiy ushbu g'azalida badiiy san'atlardan mohirona foydalangan.

Nido san'ati. Nido boshqa she'riy san'atlardan bevosita inson qalbidagi his va hayajonlarni ochiq va kuchli tasvirlab bera olish imkoniyati bilan ajralib turadi. Insonning ichki tuyg'ulari po'rtana misoli junbushga kelganida lirik qahramon olamdagi har qanday narsa-hodisalarga, tabiatdagi istalgan narsaga, o'zining qalbiga, suhbatdoshiga murojaat etishi mumkin.⁸² Yuqoridagi g'azalning matla' qismida ham "Ey shax" so'zi orqali nido san'ati yuzaga kelgan. Tanosub san'ati-she'r baytlarida ma'no jihatidan bir-biriga yaqin tushunchalarni anglatuvchi so'zlarni qo'llash.⁸³ Yuqorida keltirilgan baytda ham ko'z-u qoshing so'zlari orqali tanosub san'ati qo'llangan. Tashbih san'ati-"o'xshatish" ma'nosini ifodalaydi. Ikki narsa yoki tushunchani ular o'rtasidagi haqiqiy yoki majoziy munosabatlarga ko'ra o'xshatish.."La'li labi" orqali tashbih san'ati yuzaga kelgan. Bu baytning umumiy mazmuni: Ey yor, sening qosh va ko'zlaring oldida butun dunyo, men ham gadoman, sening qimmatbaho lablaring oldida hamma muhtojdir.

Qadd-u labing fosh-u nihon, eldin olur tob-u tavon

Ushbu nihon-u foshinga olam gado, man ham gado.

Yuqoridagi baytda fosh va nihon so'zlari vositasida qarshilantirish, ya'ni tazod san'ati yuzaga kelgan. Tazod san'ati-baytda ma'no jihatidan o'zaro zid bo'lgan so'zlarni qo'llash. Fosh-oshkora so'zi nihon-yashirin ma'nosida qo'llangan va sening qaddu labing oshkora va yashirin holda odamlarning kuchini oladi, degan ma'no ifodalangan.

Boshdin ayoqing jon erur, jonlar sanga qurbon erur,

Jono, ayoqing- boshingga olam gado, man ham gado.

Ushbu baytda ham bosh va oyoq so'zlari orqali tazod yuzaga kelganini ko'rishimiz mumkin. Mubolag'a san'ati-adabiy asarda tasvirlanayotgan badiiy timsol holati yoki harakatini bo'rttirib, kuchaytirib ifodalash.

O'n to'rtin yoshing o'tub, husning jahonni yorutub

Bu husning-u bu yoshinga olam gado, man ham gado.

Yuqoridagi baytda "husning jahonni yorutub" birikmasi orqali mubolag'a ya'ni kattalashtirish yuzaga kelgan. Yoshing o'n to'rtin o'tib, husning olamni yoritmoqda, bu husning va yoshingga olam gado, man ham gado singari ma'no ifodalangan. Umaman olganda, Ogahiyning yuqoridagi g'azalidan yorning

⁸² To'xliyev B. Karimov B. Usmonova K. Adabiyot darslik-majmua- Toshkent: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" davlat ilmiy nashriyoti, 2017

⁸³ Hojiahmedov A. She'r san'atlarini bilasizmi?- Toshkent: Sharq, 2001



O'ZBEKISTON: ZAMONAVIY ILM-FAN VA TADQIQOT MASALALARI

husni oldida hamma ojizligi, ishq-azob va zavq birligi tarannum etilgan. Ushbu g'azalda Ogahiy yor husnini ulug'lash orqali ishqning kuchini mubolag'a, tashbih san'atlari yordamida yuksak badiiy darajada ifodalagan.

Xulosa qilib aytganda, Muhammad Rizo Ogahiy g'azallarida she'riy san'atlar muhim o'rin tutadi. Ular orqali shoir o'z fikr va tuyg'ularini chuqur, obrazli va ta'sirchan tarzda ifodalagan. Ogahiy ijodi o'zbek mumtoz adabiyotining yuksak namunasi bo'lib, uning g'azallari badiiy san'atlarning boyligi bilan ajralib turadi. Shu jihatdan shoir merosi bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Nusratullo Jumaxo'ja, Iqboloy Adizova. O'zbek adabiyot tarixi (XVI-XIX asr I yarmi) – Toshkent: Innovatsiya-Ziyo, 2020
2. To'xliyev B. Karimov B. Usmonova K. Adabiyot darslik-majmua- Toshkent: "O'zbekiton milliy ensiklopediyasi" davlat ilmiy nashriyoti, 2017
3. Hojiahmedov A. She'r san'atlarini bilasizmi?- Toshkent: Sharq, 2001
4. <http://xorazmiy.uz/oz/pages/view/519>
5. <https://tafakkur.net/muhammad-rizo-ogahiy.haqida>

